

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

190111, Termiz sh, Barkamol avlod ko'chasi, 43

Tel./faks (376) 221-74-55, 221-76-90

Web: www.tersu.uz, E-xat: ter.du@exat.uz

E-mail: termizdu@umail.uz

STIR 200473474, MFO 00014

SHHR 400910860224017094100079003



**MINISTRY OF HIGHER
EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN
TERMEZ STATE UNIVERSITY**

190111, Termez city, Barkamol avlod street, 43

Tel./fax (376) 221-74-55, 221-76-90

Web: www.tersu.uz, E-xat: ter.du@exat.uz

E-mail: termizdu@umail.uz

ITN 200473474, MFI 00014

C/a 400910860224017094100079003

20 25 y. « 3 » dekabr

№ 04/12-5075

**Istamova Dilnoza Norboyevnanning 13.00.01-Pedagogika nazariyasi.
Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligidan pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan "Raqamli
ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni kiberijtimoiylashtirishning ilmiy-
pedagogik asoslari" mavzusidagi dissertatsiya ishi natijalaridan "Super
pedagog" raqamli ilmiy platformasidan foydalanilganligi to'g'risida**

MA'LUMOTNOMA

Istamova Dilnoza Norboyevnanning 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi.
Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan "Raqamli ta'lim sharoitida
bo'lajak o'qituvchilarni kiberijtimoiylashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari"
mavzusi bo'yicha olib borilgan pedagogik tadqiqot ishining natijalari "Super
Pedagog" ta'limiy platformasini yaratishda qo'llanilgan.

D.Istamova tomonidan olib borilgan tadqiqot jarayonida raqamli ta'lim
muhitida bo'lajak o'qituvchilarni kiberijtimoiylashtirish jarayonining psixologik-
pedagogik tizimini belgilovchi asosiy omillar (raqamli ijtimoiy o'zaro ta'sir, virtual
hamkorlikka tayyorgarlik, raqamli etikadagi kompetensiyalar, raqamli
kommunikativ madaniyat) tizimli tahlil qilinib, ular orqali talabalar raqamli
ijtimoiylashuvining samarali yo'nalishlari aniqlashtirgan.

Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli identiteti, ijtimoiy-madaniy
transformatsiyasi va virtual muhitda o'z-o'zini ijtimoiy ifodalash
kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi kiberijtimoiylashtirish
komponentlari (kognitiv, hissiy, kommunikativ va refleksiv) nazariy asosda
aniqlanib, ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishdagi o'rni asoslab bergan.

"Super pedagog" — bu raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak pedagoglarni
kiberijtimoiylashtirishning innovatsion platformasi bo'lib, dissertatsiya tadqiqoti
doirasida ishlab chiqilgan amaliy pedagogik vositadir. Uning maqsadi pedagogika
yo'nalishi talabalari va yosh o'qituvchilarni zamonaviy raqamli muhitda

professional kompetensiyalarini rivojlantirish, kiberijtimoiylashtirish jarayonini samarali tashkil etish va pedagogik hamjamiyat shakllantirishdir.

“Super pedagog” platformasi dissertatsiyada taklif etilgan "Bo'lajak pedagoglarni kiberijtimoiylashtirish pedagogik modeli"ning amaliy tatbiqidir. Model quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

Maqsadli komponent: Pedagogik kompetensiyalar va raqamli savodxonlikni rivojlantirish

Mazmuniy komponent: Ilmiy maqolalar, pedagogik adabiyot, metodikalar

Jarayoniy komponent: Interaktiv ta'lim, hamkorlik, feedback tizimi

Texnologik komponent: Raqamli vositalar, AI integratsiyasi, mobil platform

Baholash komponent: Reytinglar, tanlovlar, sertifikat

Natijaviy komponent: Kiberijtimoiylashgan, kompetent pedagog mutaxassis

Ushbu ilova kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish, hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, professional networking qilish va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Ma'lumotnoma talabgorning ilmiy faoliyati va loyihaga rahbarligini tasdiqlash uchun berildi.

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor:**



A. Shaydullayev